



**New Day in Medicine**  
**Новый День в Медицине**

**NDM**



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



**AVICENNA-MED.UZ**



ISSN 2181-712X.  
EiSSN 2181-2187

**4 (78) 2025**

**Сопредседатели редакционной  
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОНОВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛотова  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВ  
А.С. ИЛЬЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОВЕВ  
С.А.ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН  
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ  
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**4 (78)**

**2025**

*апрель*

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

УДК 616.831-005.4-055.2-092

## O'SMIRLARDA XAVOTIRLI-DEPRESSIV BUZILISHLARNING TIBBIY-IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLANISHI VA REABILITATSIYA JARAYONINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

<sup>1</sup>Rizayev Jasur Alimjanovich <https://orcid.org/0000-0002-6980-6278>

<sup>2</sup>Magzumova Shaxnoza Shaxzadeyevna <https://orcid.org/0000-0002-2365-5842>

<sup>1</sup>Ochilov Ulugbek Usmanovich <https://orcid.org/0000-0003-3553-8727>

<sup>1</sup>Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, O'zbekiston, Samarqand, Amir Temur 18.

Tel: +99866 233-08-41 E-mail: [sammi@sammi.uz](mailto:sammi@sammi.uz)

<sup>2</sup>Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, O'zbekiston, Toshkent, Farobiy 2

100109. Tel: +99878-150-7825, E-mail: [info@tma.uz](mailto:info@tma.uz)

### ✓ Rezyume

*Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, depressiv buzilishlarning tarqalishi barqaror o'sib bormoqda, "hozirgi vaqtda dunyoda taxminan 280 million kishi depressiyadan aziyat chekmoqda". O'smirlik davrida kuzatiladigan depressiv buzilishlar bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. O'smirlik davrida kuzatiladigan depressiv buzilishlar nozologik jihatdan nospetsifik ekanligi va o'smirlarda ruhiy patologiyaning eng ko'p uchraydigan ko'rinishlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.*

*O'smirlik davrida xavotirli-depressiv buzilishlar og'irlik darajasi bo'yicha quyidagicha taqsimlanganligi aniqlandi. 45% (81 nafar o'smir) yengil shakl, 40% (72 nafar o'smirda) o'rtacha og'irlik darajasi va 15% (27 nafar) esa aniq ifodalangan darajadagi buzilishlar mavjudligi aniqlandi. Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik metodlar yordamida o'smirlarga ta'sir qiluvchi omillar baholandi. Tadqiqotga ko'ra, 80% (144 o'smir) maktabdagi muammolarni asosiy stress omili sifatida ko'rsatgan bo'lsa, 70% (126 o'smir) oilaviy nizolar mavjudligini bildirgan. Shu bilan birga, 70% (126 o'smir) ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish, 60% (108 o'smir) tengdoshlar bilan muammolar va 50% (90 o'smir) ota-onalar o'rtasidagi nizolar xavotirli-depressiv buzilishlarning shakllanishiga bevosita ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar sifatida aniqlangan.*

*Kalit so'zlar: xavotirli-depressiv buzilish, stress, o'smirlik davri, ijtimoiy omillar, rehabilitatsiya.*

## МЕДИКО-СОЦИАЛЬНАЯ ПОДДЕРЖКА И ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА РЕАБИЛИТАЦИИ ТРЕВОЖНО-ДЕПРЕССИВНЫХ РАССТРОЙСТВ У ПОДРОСТКОВ

<sup>1</sup>Ризаев Жасур Алимжанович <https://orcid.org/0000-0002-6980-6278>

<sup>2</sup>Магзумова Шахноза Шахзадеевна <https://orcid.org/0000-0002-2365-5842>

<sup>1</sup>Очилов Улугбек Усмонович <https://orcid.org/0000-0003-3553-8727>

<sup>1</sup>Самаркандский государственный медицинский университет, Узбекистан, Самарканд,

Амир Темур 18. Тел: +99866 233-08-41 E-mail: [sammi@sammi.uz](mailto:sammi@sammi.uz)

<sup>2</sup>Ташкентская медицинская академия, Узбекистан, Ташкент, Фароби 2, 100109.

Tel: +99878-150-7825, E-mail: [info@tma.uz](mailto:info@tma.uz)

### ✓ Резюме

*По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), распространенность депрессивных расстройств неуклонно растет: «в настоящее время около 280 миллионов человек во всем мире страдают от депрессии». Депрессивные расстройства, наблюдаемые в подростковом возрасте, остаются одной из актуальных проблем современности. Отмечается, что депрессивные расстройства в подростковом возрасте являются нозологически неспецифичными и представляют собой одну из наиболее распространенных форм психической патологии у подростков.*

Выявлено, что тяжесть тревожно-депрессивных расстройств у подростков распределяется следующим образом: 45% (81 подросток) имели легкую форму, 40% (72 подростка) — среднюю степень тяжести, а 15% (27 подростков) страдали выраженными расстройствами. Кроме того, с помощью социально-психологических методов были оценены факторы, влияющие на подростков. По результатам исследования, 80% (144 подростка) назвали школьные проблемы основным стрессовым фактором, 70% (126 подростков) сообщили о наличии семейных конфликтов. Кроме того, в 70% (126 подростков) случаев чрезмерное использование социальных сетей, в 60% (108 подростков) — проблемы со сверстниками, а в 50% (90 подростков) — конфликты между родителями были выявлены как социальные факторы, непосредственно влияющие на развитие тревожно-депрессивных расстройств.

**Ключевые слова:** Тревожно-депрессивное расстройство, стресс, подростковый возраст, социальные факторы, реабилитация.

## MEDICAL AND SOCIAL SUPPORT AND SPECIFIC ASPECTS OF THE REHABILITATION PROCESS FOR ANXIETY-DEPRESSIVE DISORDERS IN ADOLESCENTS

<sup>1</sup>Rizayev Jasur Alimjanovich <https://orcid.org/0000-0002-6980-6278>

<sup>2</sup>Magzumova Shaxnoza Shaxzadeyevna <https://orcid.org/0000-0002-2365-5842>

<sup>1</sup>Ochilov Ulugbek Usmanovich <https://orcid.org/0000-0003-3553-8727>

<sup>1</sup>Samarkand State Medical University, Uzbekistan, Samarkand, Amir Temur 18. Tel: +99866 233-08-41, E-mail: [sammi@sammi.uz](mailto:sammi@sammi.uz)

<sup>2</sup>Tashkent Medical Academy, Uzbekistan, Tashkent, Farobi 2, 100109. Tel: +99878-150-7825, E-mail: [info@tma.uz](mailto:info@tma.uz)

### ✓ *Resume*

*According to the World Health Organization (WHO), the prevalence of depressive disorders is steadily increasing, with “approximately 280 million people worldwide currently suffering from depression.” Depressive disorders observed during adolescence remain one of the most pressing issues today. It is emphasized that depressive disorders in adolescence are nosologically nonspecific and represent one of the most common manifestations of mental pathology in adolescents.*

*The severity of anxiety-depressive disorders in adolescence was classified as follows: 45% (81 adolescents) had a mild form, 40% (72 adolescents) had a moderate severity, and 15% (27 adolescents) exhibited severe disorders. In addition, social-psychological factors influencing adolescents were assessed using relevant methods. The study found that 80% (144 adolescents) identified school-related problems as the main stress factor, while 70% (126 adolescents) reported the presence of family conflicts. Moreover, excessive use of social media was identified as a significant contributing social factor in 70% (126 adolescents), peer-related issues in 60% (108 adolescents), and parental conflicts in 50% (90 adolescents), all of which directly influenced the development of anxiety-depressive disorders.*

**Keywords:** Anxiety-depressive disorder, stress, adolescence, social factors, rehabilitation.

### Dolzarbligi

Xavotirli - depressiv buzilishlar muammosi so‘nggi o‘n yilliklarda nafaqat tibbiyotning balkim psixiatriya sohasining dorzarb muammosi sifatida faol o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, xavotirli-depressiv buzilishlar rivojlanishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda xavotirli-depressiv buzilishlarning turli yosh davrlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari ham keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu buzilishlarning paydo bo‘lishida organizmning gormonal o‘zgarishlari, psixosozial stress omillari va shaxsiy rivojlanish bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smirlar orasida xavotir va depressiv holatlar ko‘p uchrashi ularning shaxsiy o‘zlikni anglash jarayoni, oila va jamiyat bilan bo‘ladigan munosabatlar, ta‘lim muhitidagi omillar va psixologik bosimlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi aniqlangan.

Bundan tashqari, xavotirli-depressiv buzilishlarni aniqlash va tashxislash usullari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Zamonaviy psixodiagnostik yondashuvlar yordamida ushbu buzilishlarni erta aniqlash, klinik-patopsixologik xususiyatlarini baholash hamda ijtimoiy va biologik omillarning roli bo'yicha batafsil tahlil o'tkazish imkoniyati kengaymoqda.

Xavotirli-depressiv buzilishlarning rehabilitatsiyasi masalasida ham qator innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan. Rehabilitatsiya jarayoni esa faqat tibbiy yondashuv bilan cheklanmay, balki ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini ham qamrab olishi lozim. O'smirlarning oilasi, ta'lim muassasalari va jamiyat bilan bo'ladigan o'zaro aloqalarini yaxshilash, ularning ijtimoiy moslashuvini oshirish rehabilitatsiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Xavotirli-depressiv buzilishlari bo'lgan o'smirlarni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali tashkil etish uchun bir qator muhim omillarni hisobga olish talab etiladi. Eng avvalo, ushbu jarayonda mavjud tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, tashxislash va davolashning ilmiy jihatdan asoslangan hamda iqtisodiy jihatdan maqbul usullarini joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rehabilitatsiya jarayoni psixologik, tibbiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'z ichiga olgan holda kompleks tarzda olib borilishi lozim.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'smirlarda xavotirli-depressiv buzilishlarning klinik-dinamik xususiyatlari va shakllanish omillarini, klinik kechishini tahlil qilish va rehabilitatsiya chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

### Material va usullari

Tadqiqot 2020–2024-yillar davomida Samarqand viloyati ruhiy kasalliklar shifoxonasi va dispanseri bazasida tizimli ravishda amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida xavotirli-depressiv buzilishlardan shikoyat qilgan, ruhiy holati va psixologik omillar bo'yicha maxsus baholash mezonlariga javob bergan 12–16 yosh oralig'idagi jami 220 nafar o'smir tanlab olindi. Ulardan 180 nafari asosiy guruhni tashkil qilib, ularga tegishli diagnostik va rehabilitatsion tadbirlar o'tkazildi, 40 nafari esa nazorat guruhiga ajratilib, ularda hech qanday ruhiy kasallik aniqlanmagan yoki ularning ruhiy holati barqaror bo'lgan.

Tadqiqotda klinik-psixopatologik usullar, psixometrik baholash (Bek va Gamilton shkalaridan foydalanish va boshqalar), patopsixologik tahlil, ijtimoiy-psixologik metodlar hamda hayot sifatini baholash usullari qo'llanildi.

### Natija va tahlillari

Tadqiqot ishtirokchilari jinsiy va yosh xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratildi, bunda 12–13 yosh, 14–15 yosh va 16 yosh toifalari shakllantirildi. Har bir yosh guruhida qizlar va o'g'il bolalar alohida tahlil qilinib, ulardagi xavotir va depressiv alomatlarining intensivligi, ularning klinik kechishi va shaxsiy-psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratildi. Olingan natijalar asosida o'smirlarda kuzatiladigan xavotirli-depressiv buzilishlarning yoshga xos dinamikasi, ularning jinsga bog'liq xususiyatlari va rivojlanish omillari o'rganildi. Ushbu mezonlar bo'yicha tekshirilgan o'smirlarning jinsiy va yoshga oid tavsiflari quyidagi shaklda taqsimlandi.

#### Tekshirilgan o'smirlarning yosh va jins bo'yicha taqsimlanishi

Yosh guruhi (yil)	Qizlar soni (n)	Qizlar (%)	O'g'il bolalar soni (n)	O'g'il bolalar (%)	Jami (n)	Jami (%)
12–13	35	19.4%	22	12.2%	57	31.6%
14–15	45	25.0%	30	16.7%	75	41.7%
16	30	16.7%	18	10.0%	48	26.7%
Jami	110	61.1%	70	38.9%	180	100.0%

Tadqiqot doirasida jami 220 nafar o'smir tekshiruvdan o'tkazildi. Ular uchta asosiy guruhga bo'lingan: ambulator guruh, statsionar guruh va nazorat guruhi.

1. Ambulator guruh – jami 100 nafar o'smirdan iborat bo'lib, bu umumiy ishtirokchilarning 45,5% ini tashkil etdi. Ushbu guruh ikki kichik bo'limga ajratildi:

Maslahat yordami oluvchilar – 60 nafar (27,3%), ulardan 38 nafari qiz bola, 22 nafari o'g'il bola.

Dispanser kuzatuvida bo'lganlar – 40 nafar (18,2%), ulardan 27 nafari qiz bola, 13 nafari o'g'il bola.

2. Statsionar guruh – jami 80 nafar ishtirokchidan iborat bo'lib, bu umumiy tarkibning 36,4% ini tashkil qildi. Ushbu guruh uch qismga bo'lingan:

Birlamchi tekshiruvdan o'tganlar – 25 nafar (11,4%), ulardan 15 nafari qiz bola, 10 nafari o'g'il bola. Davolanish kursida bo'lganlar – 35 nafar (15,9%), ulardan 20 nafari qiz bola, 15 nafari o'g'il bola. Reabilitatsiya bosqichidagilar – 20 nafar (9,1%), ulardan 10 nafari qiz bola, 10 nafari o'g'il bola.

3. Nazorat guruhi – jami 40 nafar ishtirokchidan iborat bo'lib, bu umumiy tadqiqot ishtirokchilarining 18,1% ini tashkil etdi. Ushbu guruhga 25 nafar qiz bola va 15 nafar o'g'il bola kiritildi.

Tadqiqot davomida xavotirli-depressiv buzilishlarning diagnostikasi va baholash jarayoni turli klinik-psixopatologik va psixometrik metodlar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotga 12-16 yosh oralig'idagi 220 o'smir jalb etilib, ularning 81,8% (180 o'smir) asosiy guruhga, 18,2% (40 o'smir) esa nazorat guruhiga kiritildi. Guruhlarning yosh va jins bo'yicha taqsimoti muvozanatli bo'lib, asosiy guruhda 63,9% (115 o'smir) qiz va 36,1% (65 o'smir) o'g'il bola ishtirok etdi, bu esa gender omilining buzilish rivojlanishidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida klinik-psixopatologik tahlil o'tkazilib, xavotirli-depressiv sindromlarning shakllanishi va ularning dinamikasi baholandi. O'smirlarning psixologik holatini aniqlashda psixometrik baholash metodlari qo'llanildi. Xususan, Bek depressiya shkalasi orqali depressiyaning og'irlik darajasi, Gamilton shkalasi yordamida esa xavotir simptomlarining intensivligi aniqlandi. Ushbu shkala bo'yicha baholash natijalari asosida o'smirlarda depressiv va xavotirli buzilishlarning og'irliги tasniflandi.

Patopsixologik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 50% (90 o'smir) xavotirli-depressiv sindromga ega bo'lib, bunda xavotir va depressiya simptomlari o'zaro birikkan shaklda namoyon bo'lgan. Shuningdek, 30% (54 o'smir) depressiv-xavotirli sindrom tashxisi qo'yilgan bo'lib, bunda depressiv komponentning ustunligi kuzatilgan. Ijtimoiy-xavotirli sindrom esa 20% (36 o'smir) ishtirokchilarda qayd etilib, bu o'smirlar orasida ijtimoiy muhit bilan bog'liq stress omillarining muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Psixometrik baholash natijalari olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xavotirli-depressiv buzilishlarning og'irlik darajasi quyidagicha taqsimlangan: 45% (81 o'smir) yengil shakl, 40% (72 o'smir) o'rtacha og'irlik darajasi va 15% (27 o'smir) esa aniq ifodalangan darajadagi buzilishlarga ega bo'lishgan.

Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik metodlar yordamida o'smirlarga ta'sir qiluvchi omillar baholandi. Tadqiqotga ko'ra, 80% (144 o'smir) maktabdagi muammolarni asosiy stress omili sifatida ko'rsatgan bo'lsa, 70% (126 o'smir) oilaviy nizolar mavjudligini bildirgan. Shu bilan birga, 70% (126 o'smir) ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish, 60% (108 o'smir) tengdoshlar bilan muammolar va 50% (90 o'smir) ota-onalar o'rtasidagi nizolar xavotirli-depressiv buzilishlarning shakllanishiga bevosita ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar sifatida aniqlangan.

Zamonaviy texnologiyalarning roli ham tahlil qililib, 70% (126 o'smir) ortiqcha axborot yuklamasi, 65% (117 o'smir) internetga qaramlik, 60% (108 o'smir) o'zini ijtimoiy tarmoqlardagi obrazlar bilan solishtirish va 35% (63 o'smir) kiberbullyingga duch kelganini bildirgan. Bu esa raqamli muhitning o'smirlarning psixoemotsional holatiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Davolash va reabilitatsiya tadbirlari natijasida 16 yoshli guruhda 70% hollarda to'liq remissiyaga erishilgan bo'lsa, 14-15 yoshli guruhda bu ko'rsatkich 68%, kichik yoshli guruhda esa 62% ni tashkil etgan. Umuman olganda, barcha guruhlarda faqat 2% o'smirlarda davolashdan keyin o'zgarish kuzatilmagan.

Ijtimoiy moslashuv bo'yicha natijalarga ko'ra, asosiy guruhda 85% o'smir maktabga yaxshi moslashgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 70% ni tashkil etgan. Shuningdek, asosiy guruhda 80% o'smir oilaviy munosabatlarning yaxshilanganini ta'kidlagan bo'lsa, nazorat guruhida bu natija 65% bo'lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompleks yondashuv, shu jumladan klinik-psixopatologik tekshiruvlar, psixometrik va patopsixologik baholash usullarining uyg'unlashuvi xavotirli-depressiv buzilishlarni aniq tashxislash va ularning rivojlanish omillarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Maqbul natijalarga erishish uchun maktab yuklamasini optimallashtirish, oilaviy muhitni yaxshilash, ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xavotirli-depressiv buzilishlarga chalingan o'smirlarda reabilitatsiya jarayoni individual va kompleks yondashuvni talab qiladi. Xususan, ijtimoiy-psixologik, biologik va kombinatsiyalashgan omillar asosida guruhlangan o'smirlarda reabilitatsiya strategiyalarining samaradorligi turlicha bo'ldi.

Psixoterapevtik yondashuvlar: Kognitiv-xulqiy terapiya (KXT) – 85% o‘smirda psixoemotsional holatni yaxshilashga yordam bergan. Oila terapiyasi – 80% holatlarda oilaviy nizolarni kamaytirishda samarali bo‘lgan. Guruh terapiyasi – 70% o‘smirlarda ijtimoiy moslashuvni yaxshilagan.

Psixopedagogik yondashuv: Maktab psixologlari bilan ishlash – 80% o‘smirlarda maktabga moslashuv yaxshilangan. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlari – 70% o‘smirning tengdoshlar bilan muammolarini bartaraf qilishga yordam bergan.

Biologik omillarni inobatga olgan holda rehabilitatsiya: Medikamentoz terapiya (shifokor tavsiyasiga ko‘ra) – 60% o‘smirlarda simptomlarning kamayishiga yordam bergan. Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy faollik – 75% holatlarda depressiv simptomlarni kamaytirgan.

Uzoq muddatli monitoring va qo‘llab-quvvatlash: Psixologik kuzatuv – 85% o‘smirlarda simptomlarning qaytalanish xavfini kamaytirgan. Ota-onalar bilan ishlash dasturlari – 80% oila a‘zolarining rehabilitatsiya jarayonida ishtirok etishini ta‘minlagan.

### Xulosa

O‘smirlarda xavotirli-depressiv buzilishlar shakillanishida nasliy va psixogen omillar yetakchi rol o‘ynashi aniqlandi. Bundan tashqari konstitusional xususiyatlar o‘smirlarning hamda ijtimoiy omillar ta‘sir ham ushbu buzilishlar rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatganligi aniqlandi.

Xavotirli-depressiv buzilishlarni rehabilitatsiya qilishda shaxsiylashtirilgan yondashuv, psixoterapevtik usullar, oila va maktab muhitini yaxshilash hamda raqamli gigiyena tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompleks yondashuv qo‘llanilgan o‘smirlarda rehabilitatsiya natijalari sezilarli darajada yaxshilanib, 16 yoshli guruhda 70% hollarda to‘liq remissiyaga erishilgan. Kelajakda bu yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Lo Buglio G. et al. A network analysis of anxiety, depressive, and psychotic symptoms and functioning in children and adolescents at clinical high risk for psychosis // *Frontiers in Psychiatry*. – 2022. – T. 13. – C. 1016154.
2. Neagu O. A. Anxiety and Depressive Disorders in Adolescents. Contemporary Psycho-spiritual and Therapeutic Values // *Logos, universality, mentality, education, novelty. Section: Philosophy and Humanistic Sciences*. – 2024. – T. 11. – №. 1. – C. 39-54.
3. Temirpulotovich, T. B. "Functional features of the central nervous system important diagnostic aspects of the formation of psychocorrectional work with children with residual-organic genesis diseases similar to neurosis." // *Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali 3.1 (2024)*: 85-91.
4. Tremblay S. et al. Organization of rehabilitation services for youth with physical disabilities and mental health problems: A scoping review // *Frontiers in Rehabilitation Sciences*. – 2023. – T. 4. – C. 1085827.
5. Usmanovich, O. U., T. B. Temirpulotovich, and O. N. Ulug'bek. "Characteristic features of the personality development of a child who is often sick." // *Journal of education, ethics and value 3.1 (2024)*: 64-70.
6. Кучимова Ч., Кубаев Р., Очилов У. Анализ структуры дистимии у подростков // *Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований*. – 2021. – Т. 2. – №. 3.2. – С. 109-112.
7. Потапчук А. А., Терентьев Ф. В. Физическая реабилитация детей и подростков с онкогематологической патологией после трансплантации гемопоэтических стволовых клеток // *Ученые записки СПбГМУ им. ИП Павлова*. – 2021. – Т. 28. – №. 4. – С. 56-62.
8. Султонова К. Б., Шарипова Ф. К. Клинические проявления аффективных нарушений у подростков с сахарным диабетом I типа // *Актуальные проблемы психиатрии и наркологии в современных условиях*. – 2022. – С. 182-185.
9. Шайдукова Л. К. Актуальные вопросы депрессивных расстройств во взрослом и детско-подростковом возрасте: классификация, клиника, лечение // *Социальная и клиническая психиатрия*. – 2022. – Т. 32. – №. 4. – С. 88-93.
10. Яковлева Ю. А. Клинико-психопатологические и нейробиологические аспекты аффективных расстройств у детей и подростков с эпилепсией // *Обозрение психиатрии и медицинской психологии имени ВМ Бехтерева*. – 2024. – Т. 58. – №. 4-2. – С. 123-130.

**Qabul qilingan sana 20.03.2025**